



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Xamidova Diyora
Rustam qizi

*SamDU Pedagogika fakulteti, Pedagogika nazariyasi va tarixi
2-kurs magistranti*

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, shaxsga yo'nalganligi, pedagogning kreativ qobiliyatlari kabi ilmiy mavzular borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kreativ, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim, tarbiya, metod, tajriba, ijodiy mahorat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются такие научные темы, как развитие творческих способностей будущих учащихся начальных классов, направленность личности, творческие способности педагога, преимущественно на основе компетентностного подхода.

Ключевые слова: компетентность, креативность, учитель, ученик, образование, обучение, метод, опыт, творческое мастерство.

Annotation. This article is mainly based on a competenc approach scientific topics such as the development of creative abilities of future primary school teachers, personality orientation, creative abilities of the educator.

Key words: competence, creative, teacher, student, education, upbringing, method experience, creative skill.



So‘nggi yillarda pedagogik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘rganilgan kompetentlik (lot. sompeto - erishyapman, munosibman, loyiqman), u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba degan ma‘nolarni anglatadi, o‘zbek tilidagi lug‘aviy ma‘nosi "inson yaxshi biladigan", "tajribaga ega bo‘lgan" kabi ma‘nolarni bildiradi. Demak, biror bir sohada kompetentli inson shu soha haqida asosli fikr yuritish va unda samarali faoliyat olib borish uchun mos bilim va qobiliyatga ega hisoblanadi.

Ta‘limda yangi tadqiqot yo‘nalishi bo‘lgan kompetentli yondoshuvning paydo bo‘lishi hamda xorijiy pedagogik va metodik manbalarda "kompetentlik" va "kompetentsiya" tushunchalari 1960 yillarning oxiri - 1970 yillarning boshlarida AQShda paydo bo‘ldi va oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi nazariyasi va amaliyotiga keng kirib bordi.

Kompetensiyaviy yondoshuv esa - shaxs ehtiyojlari va bo‘lajak kasbiy faoliyat talablari asosida ta‘lim mazmuni, maqsadi va vazifalari, shuningdek, sohaga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarining tanlanishi bilan tavsiflanadi. Kompetentlikka asoslangan yondashuv doirasida ta‘lim jarayoni bilimlarga asoslanmaydi, balki kafolatlangan natijaga erishish g‘oyasi ilgari suriladi.

Ta‘lim tizimini modernizatsiyalash va uni shaxs imkoniyatlariga to‘liq moslashtirishga ko‘maklashuvchi zamonaviy ta‘lim tizimining asosiy vazifalaridan biri ham, ta‘lim oluvchilarda tashabbuskorlik, mustaqillik, kreativlik sifatlarini qaror toptirish va rivojlantirishdan iborat etib belgilangan. Shu nuqtai nazardan yondoshadigan bo‘lsak, mutaxassislar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash, pedagogik faoliyat samaradorligini ta‘minlashning asosiy shartlaridan biri - ularda kasbiy faoliyatga nisbatan kompetentli-kreativ yondoshuvini rivojlantirishdan iborat.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash, o‘z - o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi. O‘z ustida ishlash – pedagogning izchil ravishda o‘zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etishi.

O‘z ustida ishlash quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish; ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish.

Shaxs ijodiy faoliyatining asosini kreativlik tashkil etadi. Shuningdek, kreativlik insonning borliqni bilish va o‘zgartirishga yo‘naltirilgan ongli, maqsadli faoliyati bo‘lib, uning natijasida yangi, betakror, ilgari faoliyati bo‘lib, uning

natijasida yangi, betakror, ilgari mavjud bo'lmagan jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini yaxshilashga qaratilgan buyumlar va boshqalar yaratiladi.

Shu nuqtai-nazardan, kreativlik inson aql zakovatini barcha ijobiy sifatlarini o'zida mujassamlashtirgan, yangilik yaratish bilan bog'liq alohida faollik kasb etgan mustaqil faoliyat turi hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, shaxsning kreativligi nafaqat fan – texnika, madaniyat, san'at va ishlab chiqarish sohalarida balki, ta'lim-tarbiya jarayonida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Rus va xorijiy pedagog-psixolog olimlarning ilmiy izlanishlarini tahlil etadigan bo'lsak, ularda kreativlik shaxs ijodkorligining asosini tashkil etuvchi tushuncha sifatida talqin etilganligiga guvoh bo'lamiz:

- kreativlik qarama-qarshiliklar, muammoli vaziyatlarni bartaraf etish imkoniyati (g.Altshuller, M.Zinovkina);

- kreativlik – iqtidorga bog'liq bo'lmagan holda, shaxsning barcha sohalardagi faolligi, ijodkorlikka qobiliyati (N.Drujinin);

- kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui (Ken Robinson);

- kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim (Gardner);

- kreativlik muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish(Emebayl);

- kreativlik - individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, hislati (Dj.Gilford).

Yana bir guruh tadqiqotchilar shaxs kreativligining shaklanishi bilan bog'liq turli jihatlarni tadqiq etishgan. Jumladan, T.Galkina va L.Xusnidinova yuqori va quyi kreativlikka ega shaxslarning xulq-atvoridagi o'ziga xosliklar, verbal kreativlik masalalarini o'rganan bo'lsa, V.Drujinin, E.Korsunskiy, E.Tuniklar shaxs kreativligining rivojlanishida ijtimoiy muhit, munosabatlar, ta'limiy muhit, shuningdek oilaviy munosabatlar va shart-sharoitlar ta'sirini tahlil etgan.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, kreativlik muammosi falsafa, sosiologiya, ijtimoiy-pedagogika, umumiy psixologiyaga oid tadqiqotlar doirasida muayyan darajada o'rganilgan. Biroq, mazkur izlanishlarda asosiy e'tibor kreativlikning shaxs intellektual salohiyati bilan bog'liq jihatlari, tafakkurdagi ijodiylik, intellektual kreativlik masalalariga qaratilgan.

Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuisiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi.

Lekin tadqiqot muammosi sifatida o'rganilayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning ijodiy Faoliyatni shakllantirish texnologiyasi nazarda tutadi. Bunda asosiy e'tibor, jamiyat uchun ahamiyatli boshlang'ich ta'limning

bo`gini, farzadlar kelajagini ularning ta`lim-tarbiyasi bilan ko`proq shug`ullanayotgan shaxs, tarbiyachi pedagog balki, pedagogik jarayonning samaradorligi, tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchining o`zaro muvaffaqiyatli hamkorliklarini o`rganishga qulay sharoit yaratadigan ta`lim-tarbiyani yangicha shakl, metod va vositalarini izlab topish, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda to`g`ri yo`l topa bilish ko`nikmalarini shakllantirishga yo`naltiriladi.

Darhaqiqat, o`qituvchi hech qachon o`zi yakka holda emas, balki doimo o`quvchilar bilan hamkorlikda ijod qiladi. Shunday ekan, o`qituvchining ijodkorligi ta`lim oluvchilarning manfaatlariga xizmat qilishi maqsadga muvofiqdir. V.A.Kan-Kalik kreativlikni ijodkorlikning alohida turi sifatida baholab, u o`z-o`zicha alohida vaziyatlarni vujudga keltiruvchi va ularni pedagogik amaliyotga tatbiq etish usullarini yaratuvchi hodisa ekanligini ta`kidlaydi.

Kreativ qobiliyatni rivojlantirish va uni novatorlik darajasiga olib chiqish barcha o`qituvchining ham qo`lidan kelmaydi, biroq kreativlik hech bir o`qituvchi uchun taqiqlanmagan.

Bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida o`quv jarayonini ular shaxsiga yo`naltirish nazarda tutiladi. Bu esa, o`z navbatida, oliy ta`lim tizimida gumanistik nuqtai nazarning rivojlanishi, talabalarni axloqiy hamda kasbiy yetuklik, faollik, mustaqillik, nazariy-tahliliy faoliyatga undash imkonini beradi. Buning natijasida talabalarda o`z-o`zlarini rivojlantirish, o`z kasbiy faoliyatlarini dolzarblashtirish, yaratuvchilik, istiqboldagi pedagogik faoliyatga o`zini tayyorlash va moslashtirish kabi layoqatlarni tarkib toptiradi.

Adabiyotlar.

1. Uzluksiz ta`lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolar|| Ilmiy konferensiya materiallari. – Samarqand: SamDU nashri.
2. F.Zakirova va boshq.Elektron o`quv-metodik majmualar va ta`lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo`lkanma, T.: OO`MTV, 2010. – 57b.
3. Vinokurova N. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun eng yaxshi testlar: Bolalar, o`qituvchilar va ota-onalar uchun kitob [Matn] - M.: AST-PRESS, 1999.- 368s. Drujinin V.N. Umumiy qobiliyat psixologiyasi. - SP-b.: Piter, 1999-368 yillar.
4. Glikman, I.Z. Ta`lim nazariyasi va metodikasi [Matn] / IZ Glikman. - M.: Vlados, 2002.-176s.
5. Dubrovina, I.V. Psixologiya [Matn] / I.V. Dubrovina, E.E. Danilova, A.M. Prixozhin. - M.: Akademiya, 2000-464 p.
6. Kodjaspirova G.M., Kodjaspirov A.Yu. Pedagogik lug`at [Matn] - M.: Akademiya, 2000.- 176 b.